

**INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM METODLARI VA  
TEXNOLOGIYLARINING AHAMIYATI**

**Xaydarova Sevara Sobirjon qizi**  
UBS 1-bosqich magistranti

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy ta'lism metodlaridan foydalanishning ahamiyati, o'quvchilarning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning faol ishtirokini ta'minlashda pedagogic ta'lism metodlaridan foydalanishning samarasi to`g'risida so`z boradi.

**Аннотация:** Изучить современные образовательные методы изучения английского языка, методику обучения студентов по изучению языка, начиная с педагогических образовательных инструментов и обеспечивая обязательное участие студентов. будет обсуждаться.

**Annotation:** This article talks about the importance of using modern educational methods in teaching English, the effectiveness of using pedagogical educational methods in increasing students' interest in learning the language, and ensuring their active participation.

**Kalit so'zlar:** til o'rganish, ta'lism metodlari, zamonaviy texnologiya, axborot texnologiyalari.

**Ключевые слова:** изучение языка, методы обучения, современные технологии, информационные технологии.

**Key words:** language learning, educational methods, modern technology, information technologies.

**Kirish (Introduction).** Bugungi kunda ta'linda xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan e'tibor jadal rivojlanib bormoqda shu bilan birga til o'rganishga oid ko'plab ta'lism metodlari ishlab chiqilgan. Ingliz tilini o'rgatishda o'quvchilarning bilim darajasini aniqlagan holda bosqichma- bosqich o'rgatish maqsadga muvofiq. Bunda o'quvchilar boshlang'ich, o'rta va yuqori darajalarga bo'lingan holda o'qitiladi. Bu jarayon o'quvchilarning yaxshi natijalarga erishishiga yordam beradi. Aynan mana shu bosqichlar asosida o'qituvchilar tomonidan maxsus dasturlar ishlab chiqilishi zarur. Boshlang'ich dasturda o'quchilarning talaffuzi va grammatikasiga asosiy urg'u berilsa, o'rta dasturda lug'atlar yordamida so'z boyligini oshirish va utqni o'stirishga qaratilgan ta'lism tashkil etiladi. Yuqori bosqichda esa tilni rivojlantirishga qaratilgan ko'nikmalar kompleks rivojlantiriladi. Ingliz tilini o'rganishda grammatikani bilish asosiy ro'l o'ynaydi. Chunki ingliz tilida gap tuzishda asosiy e'tibor grammatikaga qaratiladi. Til o'ganishda zamonaviy ta'lism texnologiyalaridan foydalanish ham muhim muhim ahaliyat kasb etadi.

Til o'ganishda zamonaviy ta'lism texnologiyalaridan foydalanish ham muhimdir. Ta'lism texnologiyalaridan foydalanish inliz tilini o'rganishning har bir jihat (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirishida) foydalaniladi. Masalan tinglab tushunishda kompyuter, player, CD disklaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi. Bunda o'quvchi bir vaqtning o'zida so'zlovchining talaffuzini tushuna olishi, grammatik qoidalariga e'tibor berishi va so'z boyligini ortishiga yordam beradi. Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalar va multimedialardan foydalanish eng samarali usullardan biriga aylandi. Bunda asosan ingliz tiliga oid kino yoki

multfilmlar korish o'rganuvchining gapirish (**speaking**) va eshitib tushuna olish (**listening**) aspektlarini rivojlantirishga yordam beradi. Multimedialardan foydalanish esa o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshirishga va dars jarayonini yanada qiziqarli o'tishiga katta hissa qo'shadi.

**Ingliz tilini o'rganishda eng keng tarqalgan metodlar:**

**1. Grammatika-tarjima usuli:** Bu an'anaviy usul bo'lib, grammatika qoidalari va lug'atlarni yodlashga urg'u beradi. Matnlar tarjima qilinadi va grammatik tuzilmalar tahlil qilinadi. Bu usul tilning tuzilishini tushunishga yordam beradi, lekin muloqot qobiliyatini rivojlantirishda kam samarali.

**2. Audio-lingvistik usul:** Bu usul tilni tinglash va takrorlash orqali o'rganishga asoslangan. O'quvchilarga yangi so'zlar va iboralarni tinglash va takrorlash orqali o'rgatish orqali tilning tovush tomonini o'rganadilar. Bu usul talaffuzni yaxshilashga yordam beradi, lekin grammatika va yozma tilni o'rganishga etarli darajada e'tibor bermaydi.

**3. Kommunikativ usul (CLT):** Bu zamonaviy usul bo'lib, tilni haqiqiy muloqotda qo'llashga urg'u beradi. O'quvchilar rol o'ynash, munozaralar, prezentatsiyalar va boshqa faoliyatlarda ishtirok etib, tilni amalda qo'llaydilar. Bu usul muloqot qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, lekin grammatika qoidalari o'rganishga etarli e'tibor bermasligi mumkin.

**4. Vazifa asosidagi o'qitish (TBLT):** Bu usulda o'quvchilarga ma'lum bir vazifani bajarish uchun ingliz tilini qo'llash talab qilinadi. Vazifalar o'quvchilarning qiziqishi va ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lishi kerak. Masalan, elektron pochta yozish, xat yozish, taqdimot tayyorlash kabi vazifalar. Bu usul tilni amalda qo'llashni o'rgatadi va motivatsiyani oshiradi.

**5. Immersiv usul:** Bu usul o'quvchilarni ingliz tiliga bo'lgan muhitga to'liq sho'ng'itishga asoslangan. Bu chet elga borish, ingliz tilida so'zlashadigan odamlar bilan aloqa qilish, ingliz tilidagi filmlar va seriallarni tomosha qilish, ingliz tilidagi kitoblarni o'qishni o'z ichiga olishi mumkin. Bu usul tilni tez va samarali o'rganishga yordam beradi.

**6. Texnologiyalardan foydalanish:** Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, kompyuterlar, smartfonlar va tabletkalar, ingliz tilini o'rganish jarayonini yaxshilash uchun qo'llanilishi mumkin. Bu onlayn resurslar, o'quv dasturlari va ilovalardan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin (**Duolingo, Memrise, Babbel va boshqalar**).

**7. O'yinlar va interaktiv mashqlar:** O'yin elementlarini qo'llash o'rganishni qiziqarli va samarali qiladi. Bu lug'atlarni o'rganish, grammatika qoidalari mustahkamlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ishlatalishi mumkin.

**8. Lug'at va grammatika o'rganish:** Bu asosiy usullar bo'lib, ular tilning asoslarini o'rganish uchun juda muhimdir. So'zlarni kartochkadan yoki ilovalar yordamida o'rganish, grammatik qoidalarni tizimli o'rganish, o'qish va yozish mashqlari shu jumлага kiradi.

Ko'pincha, eng samarali yondashuv bir nechta metodlarni birlashtirishdan iborat. O'quvchining o'ziga mos keladigan metodlarni tanlashi va doimiy mashq qilishi muhimdir.

**Xulosa:** Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish o'quv jarayonini sifatli tashkil etadi va o'quv jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi, o'quvchilarning

tilga o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularning muloqat qobiliyatini rivojlantiradi va umuman olganda, tilni o'rganish samaradorligini sezilardi darajada yaxshilaydi. Zamonaviy metodlarni muvaffaqiyatlari qo'llash o'qituvchilarining doimiy ravishda o'z malakalarini oshirib borishi va yangi texnologiyalarni o'zlashtirishiga bog'liq.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma.- "Fan va texnologiya", 2007.
2. Bekmuratova U.B "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent-2012 yil
3. N. Q. Xatamova, M. N. mirzayeva. " INGLIZ TILI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL" (uslubiy qo'llanma)
4. EURASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH.
5. SCIENCE AND INNOVATION jurnali.
6. Internet saytlari.